

Qang' , Davan, Xorazm

ABDIRAZZAQOVA ROBIYA

NIYOZOVA SEVARA

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Annontatsiya: *Ushbu maqolada Qadimgi Qang' , Xorazm va Davan davlatlari tarixi, tashqi aloqalari , muhim voqealiklar bayon qilingan. Jumladan Xorazm davlati egallagan hududlar hozirda Xorazm yerlari chegaralanib qolmay, balki undan janubga, ya'ni Marv (Turkmaniston), Hirot (Avg'onistonning shimoli) atroflariga qadar ham yoyilgan. Miloddan avvalgi so'nggi ming yillikning boshlariga tegishli "Amirobod madaniyati", Quyi Amudaryo havzasida yuzaga kelgan o'ziga xos sun'iy sug'orish inshooti tizimi hamda dastlabki shaharsozlik timsoli bo'lgan shahar – qal'alar- Qal'aliqir, Ko'zaliqir va boshqalar bular Xorazm vohasida davlat tuzumlari mavjudligidan dalolat beradi.*

Kalit so'zlar: *Qal'aliqir, Ko'zaliqir, Amirobod madaniyati, „Boxan“ , „Polona“*

Umumelatlar, qavm – qabilalar manfaatlariga xizmat qiladigan muhim o'zgarishlar davlat boshqaruv yo'li bilangina amalga oshirilishi mumkin bo'ladi. Qadimshunos Ya.G'ulomov tomonidan Xorazmda aniqlangan 200 km uzunlikdagi, eni bir necha metr dan iborat bo'lgan kanal o'zagi, obod dehqonchilik madaniyati Xorazm davlati qadimdan insoniyatning yirik madaniy markazlaridan biri sifatida shuhrat topganligidan dalolat beradi. "Avesto" da Xorazm Markaziy Osiyoda rivoj topgan, o'z hududi, chegaralariga ega bo'lgan davlatlardan biri sifatida tilga olinishi ham bejiz emas. Geradot ma'lumotiga qaraganda, qadimgi Oks daryosi bo'yida 360 dan ziyod sun'iy sug'orish kanallari, suv inshootlari barpo etilib, cho'lni, sahroli hududlarga suv chiqarilib, dehqonchilik uchun ekin maydonlari kengaytirib borilgan. Geradot tassurotlarida Xorazm o'lkasida yashagan aholi dehqonchilikdan katta tajribaga ega bo'lib, ular donli, dukkakli ekinlar, masalan, bug'doy, arpo, suli,

meva – sabzavotchilik mahsulotlarini etishtirganliklarini qayd etib borganlar. Xorazm shaharsozligida xom g'isht, paxsalardan keng foydalanilgan, binolarning tashqi va ichki ko'rinishlariga maxsus ishlov berilib, ularning mustahkamligi, o'ziga xos ko'rkamligi ta'minlangan. Xorazm vohasida huranmandchilik, tog' – kon ichlari ancha rivoj topgan. Bu erdan qazib olingan qimmatbaho zumrad toshlarga ishlov berilib, yuksak sifat ko'rsatgichiga eyganidan keyingina u muhim tayyor mahsulot sifatida foydalanishga chiqarilgan. Xorazm zumradi, Sharqning bir qator, jumladan, Eron, Xitoy, Hindiston, Misr singari mamlakatlarga ham yuborilgan.[1]

Xorazm davlatida hukmronlik qilgan sulolalar to'g'risida ma'lumotlar hozirgacha aniq emas. Rivoyatlarga ko'ra, Xorazmning qadimiy siyosiy sulolasi Siyovushlar bo'lganligi zikr etiladi. "Avesto" da ta'kidlanishicha, Siyovush Kaykovusning o'g'li bo'lgan. Siyovushroning o'limidan so'ng uning nabirasi Kova Xisrav bobosi qotilidan o'ch olib, Xorazmda birinchi sulolaga asos soladi. Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida ta'kidlashicha, Xorazmga aholi miloddan avvalgi 1292- yilda kela boshlagan deb ko'rsatadi. Siyovushning Turonga kirib kelgan sanasi esa miloddan avvalgi 1200-yil belgilangan. Miloddan avvalgi III asrlarda Xitoyning shimoliy g'arbiy chegaralaridan Sirdaryoning o'rta oqimi havzalarigacha bo'lgan juda katta maydonda turkey tilda so'zlashuvchi ko'p sonli chorvador qabilalari yashab kelgan. Ular xunlar, sak usunlar, yuechjilar va boshqa nomlar bilan mashhur bo'lganlar. Ular yaylovlar uchun doimo bir – birlari bilan to'qnash kelganlar. Ayni paytda siyosiy hukmronlik uchun ham kurash qizg'in edi[2].

Hozirgi O'zbekiston hududida Qadimgi Xorazm davlatidan tashqari Choch, So'g'd hududlarini o'z ichiga olgan qudratli Qang' podsholigi (Miloddan av. III asr) Parkana –Farg'ona davlati, Baqtriya, Yunon – Baqtriya davlati tashkil topdi. Yunon – Baqtriya davlatining asosini Baqtriya, So'g'diyona, Marg'iyona tashkil etadi. Qang' davlatining joylashgan o'rni haqida olimlar o'rtasida yangicha qarashlar mavjud. A. Asqarovning fikricha, hozirgi Toshkent va Sirdaryo viloyatlari ham Janubiy Qozog'iston erlarida yashovchi sak qabilalarning makedoniyalik

Iskandar qo'shinlari va Salavkiylarga qarshi kurashlari jarayonida miloddan avvalgi III asrda yarim o'troq Qang' davlati tashkil topadi degan xulosaga keldi. A. Asqarovning fikricha, Qang' davlatining asosiy erlarini Toshkent vodiysi, Talas vodiysi, Chu daryosining quyi oqimlaridan, daryosigacha bo'lgan joylarni tashkil etgan. Qadimgi Xorazm va So'g'd erlari ham Qang' davlatiga tobe bo'lgan. Qang' davlatining ikkita markazi – Qanxa (Qang'diz) va O'tror (Turband) shaharlari bo'lgan. Qanxa shahri Toshkent vohasida, O'tror shahri esa Aris daryosi quyi oqimida joylashgan. Qang' davlati haqida Xitoy manbalarda ham ma'lumotlar bor. Xitoy tarixchisi Si – Ma- Syan' miloddan avvalgi II asrning oxirlarida O'rta Osiyoga kelgan Xitoy elchisi va sayyohi Ijan' – Syan' ma'lumotlariga asoslanib, bu hududda ko'chmanchi Qang'yuy yoki Qandzyuy davlati mavjudligi haqida yozadi. Uning ta'kidlashicha, Qang'yuy davlati aholisining urf – odatlari yuechjilar urf – odatlariga o'xshash ekan.[3]

Xitoy manbalaridagi ma'lumotlarga ko'ra, Anvisi (Parfiya) shimolda Qang'yuy bilan chegaradosh bo'lgan. Bu ma'lumotlarga ko'ra, Qang'yuy yoki Qanxa davlati tarkibiga qadimgi Xorazm, Choch va So'g'diyona ham kirgan. Miloddan av. II asrda Qang'yuy davlati o'z taraqqiyotining yuksak darajaga erishadi. Qang' davlati o'sha davrda vujudga kelgan ilk quldorlik davlatlardan biri edi. Miloddan avv. I ming yillikning I yarimida Xorazmda patriarxal quldorlik jamiyati shakllana borib, mil. avv. II asrda ham bu jarayon davom etadi. Bu jamiyat chorvador yarim o'troq jamiyati bo'lib, ularning asosiy mulki boyligi chorva, chorva mollari boqiladigan yaylovlarda bo'lgan. Boy chorvador toifasi chorvadorlar harbiy aristokratiyasini tashkil qilgan. Bunday hodisa chorvador zodagonlarga, patriarxal qullarga bo'linish ro'y bergan. Hunarmandchilikning qishloq xo'jalikdan ajralish jarayoni yuz berdi.[4]

Miloddan avvalgi II—I-asrlardagi manbalarida keng, obod, boy mamlakat — Davan haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Davan shahar va voha hokimlarining erkin ittifoqidan iborat davlat edi. Ulug' hukmdor qarorgohi Gushan (hozirgi O'zgan shahri deb taxmin etiladi)da bo'lgan. Podsho qokimiyati

qabila zodagonlaridan iborat oqsoqollar kengashi tomonidan cheklab qo'yilgan. Oliy kengash qukdorni podsholikdan tushirishi, hatto o'lim jazosiga hukm qilishi mumkin bo'lgan. Davan atamasi tarixiy adabiyotlarda mil. III asrgacha uchraydi. So'ngra Davan o'rniga „Boxan“ va „Polona“ (mil. V asr) atamaları uchrab muarrixlar ushbu atamalar qad. Davanga moye keladi deb qayd etib o'tganlar. Xitoyliklar Davan deb nomi toharlar (Taxwar) bilan bog'liq bo'lgan mamlakatni atashgan degan fikr bor. Davan miloddan avvalgi 130-yildan boshlab Xitoy bilan ko'plab aloqalar va almashinuvlar olib borgan. Miloddan avvalgi 130-yillarda, Chjan Syan O'rta Osiyoga elchi bo'lib borgan vaqtda Davan xalqi Xitoy imperiyasining g'arbida joylashgan Farg'onaga to'g'ri keladigan hudud aholisi sifatida tasvirlangan.[5]

Miloddan avvalgi II asr oxiridagi ma'lumotlarga ko'ra, Davan aholisi 300 ming kishini tashkil qilgan, Davanliklar ko'zlari kirtaygan, qalin soqolli xalq bo'lib, savdo-sotiq ishlarida mohirliklari bilan nom chiqarishgan. Davanda xotin-qizlar izzat-ikrom qilingan. Davanliklar ishlab chiqaruvchilar va sharobni yaxshi ko'radiganlar sifatida tasvirlangan. Davanda yetishtirilgan „osmon tulporlari“ — arg'umoqlar Sharqda mashhur bo'lgan. Miloddan avvalgi 104—101 yillarda Xitoy askarlari Davanga ikki bor hujum qilganlar. 1-hujum Xitoy askarlarining mag'lubiyati bilan tamom bo'lgan, chunki ular istehkomga aylantirilgan qishloqlarning qarshiligini sindirish uchun ojizlik qilganlar. Xitoyliklar 60 ming kishilik katta qo'shin bilan ikkinchi marta hujum qilib, 101 yilda Ershi shahrini qamal etishgan (qarang Ershi mudofaasi). Davanda saklar hukmronligi miloddan avvalgi 160-yilda boshlangan. Xitoy tadqiqotchisi Chjan Syan miloddan avvalgi 128-yillarda Davanni tasvirlaganida, u gullab-yashnagan urbanizatsiya sivilizatsiyasidan tashqari, „otda o'q otuvchi jangchilar“ borligini eslatib o'tgan.[6]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Геродот. История в девяти книгах / Пер. Г. А. Стратановского. М.; Л., 1972. («Памятники исторической мысли»; репр. 1993).
2. Авдиев В.И. История Древнего Востока. Москва 1948 .

3. Авдиев В.И. Кадимги Шарк тарихи. Тошкент 1964.
4. Ollomurodov, N. Y. O. G. L. (2023). O 'ZBEKISTONNING JANUBIY SHAHARLARIDA UY-JOY QURILISHIDAGI YUTUQLAR VA MUAMMOLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(12), 25-28.
5. Ollomurodov, N. Y. O. G. L. (2023). SOVET HUKUMATINING DINGA NISBATAN MUNOSABATI VA UNING IJTIMOIIY OQIBATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4-2), 392-397.
6. Ollomurodov, N. Y. O. G. L. (2023). SOVET HUKUMATINING DINGA NISBATAN MUNOSABATI VA UNING IJTIMOIIY OQIBATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4-2), 392-397.